A. Saunders, M.M. Cornett va O. Erhemjamts moliyaviy institutlarni boshqarishda aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Mualliflar depozitlarning muddatlari



bilan kredit va investitsiyalarning muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblik likvidlik tavakkalchiligini oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Depozit portfelini boshqarishda foiz stavkalari tavakkalchiligi, depozitlarning muddatidan oldin qaytarib olinishi va mijozlar mablag'larining konsentratsiyasi muntazam baholab borilishi lozimligi qayd etilgan [8].

T.W. Koch va S.S. MacDonald tijorat banklarida depozit portfelini boshqarishni aktivlar va majburiyatlarni boshqarish tizimining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqadi. Ular depozitlarning umumiy hajmini ko'paytirish bilan bir qatorda resurslarning o'rtacha qiymatini pasaytirish, barqaror depozitlar ulushini oshirish va yirik omonatchilarga qaramlikni kamaytirish zarurligini asoslaydi. Mualliflarning fikricha, depozitlar tarkibining muntazam tahlil qilinishi bankning likvidlik holati va daromadlilikiga oid qarorlarni sifatli qabul qilish imkonini beradi [9].

D.W. Diamond va P.H. Dybvig bank depozitlari, likvidlik va omonatchilar xatti-harakatlari o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy jihatdan asoslab bergan. Ularning modeliga ko'ra, banklar qisqa muddatda qaytarilishi mumkin bo'lgan depozitlarni uzoq muddatli aktivlarga joylashtiradi va shu orqali iqtisodiyotda likvidlik yaratadi. Shu bilan birga, omonatchilarning bir vaqtning o'zida mablag'larini qaytarib olishga intilishi bank likvidligiga ta'sir qilishi mumkin. Mazkur yondashuv depozit portfelining muddatlar bo'yicha barqaror tarkibini shakllantirish hamda depozitlarni kafolatlash mexanizmlarining ahamiyatini ochib beradi [10].

A.N. Berger va C.H.S. Bouwman banklarning likvidlik yaratish jarayonini o'rganib, depozitlarni bank likvidligini shakllantiruvchi muhim manbalardan biri sifatida baholaydi. Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvga ko'ra, banklar likvid majburiyatlarni, jumladan, depozitlarni nisbatan kam likvid aktivlarga aylantirish orqali iqtisodiyot uchun likvidlik yaratadi. Depozit portfelining hajmi va tarkibi banklarning kreditlash salohiyati hamda moliyaviy vositachilik faoliyati ko'lamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [11].

I. Drechsler, A. Savov va P. Schnabl depozitlar kanalining pul-kredit siyosatidagi rolini tadqiq etib, Markaziy bank foiz stavkalari o'zgarishining tijorat banklari depozit stavkalari va depozitlar hajmiga ta'sirini yoritadi. Mualliflarning fikricha, bozor foiz stavkalari oshgan sharoitda banklar depozit stavkalarini bir xil sur'atda o'zgartirmasligi mumkin, bu esa depozitlarning banklar o'rtasida qayta taqsimlanishiga olib keladi. Ushbu yondashuv depozit siyosatini shakllantirishda pul-kredit siyosati, raqobat muhiti va mijozlarning foiz stavkalariga sezgiriligini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi [12].

Umuman olganda, o'rganilgan mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarda tijorat banklari depozit portfelini samarali boshqarish uning hajmini oshirish bilangina cheklanmasligi, balki depozitlarning muddati, valyutasi, qiymati, mijozlar tarkibi va barqarorlik darajasini o'zaro uyg'unlashtirishga asoslanishi qayd etilgan. Depozit portfelini diversifikatsiya qilish, jismoniy va yuridik shaxslar mablag'lari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, uzoq muddatli depozitlar ulushini oshirish, foiz siyosatini bozor sharoitlariga moslashtirish hamda aktivlar va majburiyatlar muddatlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash depozit siyosati samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023–2025-yillar yakunlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlari, tijorat banklari faoliyatiga oid hisobotlar hamda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar gorizontal, vertikal, qiyosiy va koeffitsiyentlar tahlili asosida o'rganilib, depozit portfelining hajmi, muddat, valyuta va mijozlar tarkibi bo'yicha o'zgarishlar baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari depozit portfelini tarkibiy jihatdan tahlil qilish banklarning resurs bazasi shakllanishidagi asosiy tendensiyalarni, depozit mablag'larining kreditlash jarayonidagi o'rnini hamda jalb qilingan resurslarning muddat va valyuta bo'yicha taqsimlanishini baholash imkonini beradi. O'zbekiston bank tizimida 2023–2025-yillar davomida depozitlar hajmining jadal sur'atlarda oshishi kuzatilib, ularning bank aktivlari va majburiyatlarini moliyalashtirishdagi ahamiyati izchil kuchayib borgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakunida tijorat banklarining jami aktivlari 652 157 mlrd so'mni, kredit portfeli 471 406 mlrd so'mni, depozitlar esa 241 687 mlrd so'mni tashkil etgan. 2024-yil yakunida jami aktivlar 769 330 mlrd so'mga, kredit portfeli 533 121 mlrd so'mga va depozitlar 308 692 mlrd so'mga yetgan. 2025-yil yakuniga kelib bank tizimi aktivlari 924 763 mlrd so'mni, kredit portfeli 604 002 mlrd so'mni, depozitlar esa 417 258 mlrd so'mni tashkil qilgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar	2023-yil yakuni	2024-yil yakuni	2025-yil yakuni	2025-yilning 2023-yilga nisbatan o'zgarishi, %
Jami aktivlar	652 157	769 330	924 763	141,8
Kredit portfeli	471 406	533 121	604 002	128,1
Jami depozitlar	241 687	308 692	417 258	172,6
Jami kapital	97 079	114 792	135 339	139,4

Jadval ma'lumotlari 2023–2025-yillarda bank tizimining barcha asosiy ko'rsatkichlari ijobiy dinamikaga ega bo'lganini ko'rsatadi. Mazkur davrda jami aktivlar 41,8 foizga, kredit portfeli 28,1 foizga, jami kapital 39,4 foizga oshgan. Depozitlar hajmi esa 72,6 foizga ko'payib, aktivlar va kreditlarga nisbatan yuqoriroq o'sish sur'atini namoyon etgan.

Jami depozitlar hajmi 2023-yil yakunidagi 241 687 mlrd so'mdan 2024-yil yakunida 308 692 mlrd so'mga ko'paygan. Natijada bir yil davomida depozitlar hajmining mutlaq o'sishi 67 005 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 27,7 foizni tashkil etgan.

2025-yil yakunida depozitlar hajmi 417 258 mlrd so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan 108 566 mlrd so'mga yoki 35,2 foizga oshgan. Demak, 2025-yilda depozitlar o'sish sur'ati 2024-yildagiga nisbatan 7,5 foiz bandga tezlashgan.

Depozitlar dinamikasida quyidagi ijobiy holatlar kuzatilgan:

1. Bank tizimining ichki resurs bazasi sezilarli darajada kengaygan.
2. Depozitlar o'sishi kredit portfeli o'sishidan yuqori bo'lgan.
3. Bank aktivlarini depozit mablag'lari hisobidan moliyalashtirish darajasi oshgan.
4. Kredit operatsiyalarining ichki manbalar bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshilangan.
5. Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank tizimiga jalb etish imkoniyatlari kengaygan.

Depozit portfelinin mutlaq hajmi bilan bir qatorda uning bank aktivlari va majburiyatlariga nisbatan ulushini baholash ham muhim hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich bank faoliyatining depozit resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalaydi.

Depozitlarning jami aktivlardagi ulushi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$DAU=A/D \times 100$$

Bu yerda:

- DAU — depozitlarning aktivlardagi ulushi;
- D — jami depozitlar;
- A — bank tizimining jami aktivlari (2-jadval).

2-jadval. Depozit portfelinin bank aktivlari va kreditlariga nisbatan ko'rsatkichlari²

Ko'rsatkichlar	2023-yil yakuni	2024-yil yakuni	2025-yil yakuni	O'zgarish
Depozitlarning aktivlardagi ulushi, %	37,1	40,1	45,1	+8,0 foiz band
Kreditlarning aktivlardagi ulushi, %	72,3	69,3	65,3	–7,0 foiz band
Kredit-depozit koeffitsiyenti, %	195,0	172,7	144,8	–50,2 foiz band
Depozitlarning kreditlarga nisbati, %	51,3	57,9	69,1	+17,8 foiz band

Depozitlarning jami aktivlardagi ulushi 2023-yil yakunidagi 37,1 foizdan 2024-yilda 40,1 foizga, 2025-yilda esa 45,1 foizga oshgan. Mazkur o'zgarish bank aktivlarini shakllantirishda depozit mablag'larining roli kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Kreditlarning aktivlardagi ulushi 2023-yildagi 72,3 foizdan 2025-yilda 65,3 foizga kamaygan. Bu holat bank aktivlari tarkibida kreditlardan tashqari likvid aktivlar, qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy instrumentlar ulushi ham rivojlanib borayotganini ko'rsatishi mumkin.

Kredit-depozit koeffitsiyenti quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$KDK=D/K \times 100$$

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

² Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.



Bu yerda:

- *KDK* — kredit-depozit koeffitsiyenti;
- *K* — jami kredit portfeli;
- *D* — jami depozitlar.

Mazkur koeffitsiyent 2023-yilda 195,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 172,7 foizga va 2025-yilda 144,8 foizga tushgan. Koeffitsiyentning pasayishi kredit portfeliga nisbatan depozit bazasi tezroq kengayganini anglatadi. Shu bilan birga, banklarning kredit operatsiyalari depozitlardan tashqari kapital, banklararo mablag'lar, xalqaro moliya institutlari resurslari va boshqa manbalar hisobidan ham moliyalashtirilayotganini ko'rsatadi.

Depozitlarning kredit portfeliga nisbati 2023-yildagi 51,3 foizdan 2025-yilda 69,1 foizga oshgan. Shunday qilib, 2023-yilda har 100 so'mlik kredit portfeliga 51,3 so'mlik depozit to'g'ri kelgan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 69,1 so'mga yetgan.

Depozit portfelining valyuta bo'yicha diversifikatsiyasi banklarning valyuta likvidligi va resurs bazasining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Milliy valyutadagi depozitlar ulushining oshishi banklarning milliy valyutadagi kredit va investitsiya operatsiyalarini ichki resurslar hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston bank tizimi depozitlarining valyuta bo'yicha tarkibi³

Ko'rsatkichlar	2023-yil yakuni	2024-yil yakuni	2025-yil yakuni
Jami depozitlar, mlrd so'm	241 687	308 692	417 258
Xorijiy valyutadagi depozitlar, mlrd so'm	72 171	77 458	87 336
Milliy valyutadagi depozitlar, mlrd so'm	169 516	231 234	329 922
Xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi, %	29,9	25,1	20,9
Milliy valyutadagi depozitlar ulushi, %	70,1	74,9	79,1

2023-yil yakunida xorijiy valyutadagi depozitlar 72 171 mlrd so'mni yoki jami depozitlarning 29,9 foizini tashkil etgan. 2024-yilda ularning miqdori 77 458 mlrd so'mga oshgan bo'lsa-da, jami depozitlardagi ulushi 25,1 foizga pasaygan. 2025-yil yakunida xorijiy valyutadagi depozitlar 87 336 mlrd so'mni tashkil etib, ularning portfeldagi ulushi 20,9 foizga teng bo'lgan.

Tahlil davrida xorijiy valyutadagi depozitlar miqdori mutlaq jihatdan 15 165 mlrd so'mga yoki 21,0 foizga oshgan. Shu davrda milliy valyutadagi depozitlar 169 516 mlrd so'mdan 329 922 mlrd so'mga yetib, 94,6 foizga ko'paygan.

Natijada milliy valyutadagi depozitlarning jami portfeldagi ulushi:

1. 2023-yilda 70,1 foizni;
2. 2024-yilda 74,9 foizni;
3. 2025-yilda 79,1 foizni tashkil etgan.

Milliy valyutadagi depozitlar ulushining ikki yil davomida 9 foiz bandga oshishi depozit portfelining valyuta tarkibida milliy valyuta mavqeyi mustahkamlanganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiya milliy valyutadagi omonatlarning jozibadorligi, banklar tomonidan taklif qilinayotgan foiz stavkalari hamda milliy valyutadagi jamg'arish instrumentlarining rivojlanishi bilan izohlanishi mumkin.

Bank resurs bazasining barqarorligi depozitlarning muddatlar bo'yicha tarkibiga bevosita bog'liq. Talab qilib olinguncha depozitlar bank uchun nisbatan arzon mablag' manbai bo'lsa, o'rta va uzoq muddatli depozitlar uzoq muddatli kredit hamda investitsiya operatsiyalarini barqaror moliyalashtirish imkonini beradi (4-jadval).

4-jadval. Depozitlarning muddatlar bo'yicha tarkibi⁴

Depozit turlari	2023-yil yakuni	2024-yil yakuni	2025-yil yakuni	2025-yilning 2023-yilga nisbatan o'sishi, %
Talab qilib olinguncha	85 198	99 094	125 889	147,8
1 kundan 30 kungacha	6 301	11 668	13 823	219,4
31 kundan 180 kungacha	30 028	32 312	57 787	192,4
181 kundan 365 kungacha	34 952	46 260	63 032	180,3
Bir yildan ortiq	85 209	119 359	156 727	183,9
Jami depozitlar	241 687	308 692	417 258	172,6

3 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan va hisoblangan.

4 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2023-yil yakunida talab qilib olinguncha depozitlar va bir yildan ortiq muddatga joylashtirilgan depozitlar deyarli teng miqdorni — mos ravishda 85 198 mlrd so'm va 85 209 mlrd so'mni tashkil etgan.

2025-yil yakuniga kelib talab qilib olinguncha depozitlar 125 889 mlrd so'mga, bir yildan ortiq muddatli depozitlar esa 156 727 mlrd so'mga yetgan. Uzoq muddatli depozitlarning mutlaq hajmi ikki yil davomida 71 518 mlrd so'mga yoki 83,9 foizga oshgan.

Depozitlarning muddatlar bo'yicha tarkibiy ulushlarini baholash portfeldagi sifat o'zgarishlarini yanada aniqroq ko'rsatadi (5-jadval).

5-jadval. Depozitlarning muddatlar bo'yicha tarkibiy ulushlari⁵

Depozit turlari	2023-yil yakuni, %	2024-yil yakuni, %	2025-yil yakuni, %	O'zgarish, foiz band
Talab qilib olinguncha	35,3	32,1	30,2	-5,1
1 kundan 30 kungacha	2,6	3,8	3,3	+0,7
31 kundan 180 kungacha	12,4	10,5	13,8	+1,4
181 kundan 365 kungacha	14,5	15,0	15,1	+0,6
Bir yildan ortiq	35,3	38,7	37,6	+2,3
Jami	100,0	100,0	100,0	—

Talab qilib olinguncha depozitlarning jami portfeldagi ulushi 2023-yildagi 35,3 foizdan 2025-yilda 30,2 foizga kamaygan. Shu bilan birga, mazkur depozitlarning mutlaq miqdori 47,8 foizga oshgan. Demak, ularning tarkibiy ulushi kamayishi talab qilib olinguncha depozitlarning qisqarishi hisobiga emas, balki boshqa muddatli depozitlarning tezroq ko'payishi natijasida yuzaga kelgan.

Bir yildan ortiq muddatli depozitlar ulushi 2023-yildagi 35,3 foizdan 2024-yilda 38,7 foizga ko'tarilgan. 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 37,6 foizni tashkil etgan. Umuman, ikki yillik davrda uzoq muddatli depozitlar ulushi 2,3 foiz bandga oshgan.

31 kundan 180 kungacha joylashtirilgan depozitlar 2025-yilda ayniqsa yuqori o'sishni qayd etgan. Ularning miqdori 2024-yildagi 32 312 mlrd so'mdan 2025-yilda 57 787 mlrd so'mga yetib, bir yil davomida 78,8 foizga oshgan. Natijada ushbu depozitlarning portfeldagi ulushi 10,5 foizdan 13,8 foizga ko'tarilgan.

Muddatlar bo'yicha tarkibiy tahlil quyidagi tendensiyalarni ko'rsatadi:

1. Talab qilib olinguncha depozitlarning tarkibiy ulushi bosqichma-bosqich kamaygan.
2. Bir yildan ortiq muddatli depozitlar portfelning eng katta tarkibiy qismi sifatida shakllangan.
3. Olti oygacha bo'lgan muddatli depozitlarning hajmi sezilarli oshgan.
4. Depozit portfelining o'rtacha muddatligini oshirish uchun iqtisodiy asoslar kengaygan.
5. Banklarning uzoq muddatli kredit operatsiyalarini ichki depozitlar hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlari mustahkamlangan.

Depozit portfelini jismoniy va yuridik shaxslar bo'yicha tahlil qilish bank resurslarining mijozlar bazasi bo'yicha diversifikatsiya darajasini baholash imkonini beradi. Jismoniy shaxslarning depozitlari ko'p sonli mijozlar o'rtasida taqsimlanishi bilan ajralib tursa, yuridik shaxslarning depozitlari banklarning korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish ko'lamini va xo'jalik subyektlarining hisobvaraqlaridagi mablag'lar bilan bog'liq (6-jadval).

6-jadval. Jismoniy va yuridik shaxslar depozitlarining tarkibi⁶

Ko'rsatkichlar	2024-yil yakuni	2025-yil yakuni	Mutlaq o'sish	O'sish sur'ati, %
Jismoniy shaxslar depozitlari	122 421	160 401	37 980	131,0
Yuridik shaxslar depozitlari	186 272	256 857	70 585	137,9
Jami depozitlar	308 692	417 258	108 566	135,2
Jismoniy shaxslar ulushi, %	39,7	38,4	—	-1,3 foiz band
Yuridik shaxslar ulushi, %	60,3	61,6	—	+1,3 foiz band

2025-yil yakunida jismoniy shaxslarning depozitlari 160 401 mlrd so'mni, yuridik shaxslarning depozitlari esa 256 857 mlrd so'mni tashkil etgan. Depozit portfelida jismoniy shaxslar mablag'larining ulushi 38,4 foizga, yuridik shaxslar mablag'larining ulushi esa 61,6 foizga teng bo'lgan.

5 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

6 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan va hisoblangan.



2024–2025-yillar davomida jismoniy shaxslar depozitlari 31,0 foizga, yuridik shaxslar depozitlari esa 37,9 foizga ko'paygan. Korporativ depozitlarning yuqoriroq o'sish sur'ati natijasida yuridik shaxslarning jami depozitlardagi ulushi 1,3 foiz bandga oshgan.

Jismoniy shaxslar depozitlarining 160,4 trln so'mga yetishi aholi jamg'armalarini bank tizimiga jalb etish ko'lamini kengayganini ko'rsatadi. Chakana depozitlarning kelgusida ham barqaror o'sishini ta'minlash quyidagilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

1. Raqamli omonat mahsulotlarini rivojlantirish.
2. Kichik summalarda muntazam jamg'arish imkoniyatlarini kengaytirish.
3. Turli yosh va daromad guruhlariga moslashtirilgan depozitlarni taklif etish.
4. Uzoq muddatli omonatlar bo'yicha rag'batlantiruvchi shartlarni qo'llash.
5. Depozit xizmatlarining qulayligi va masofadan boshqarish imkoniyatlarini oshirish.

Yuridik shaxslar depozitlari ulushining yuqoriligi bank tizimida korporativ mijozlar mablag'larining muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Korporativ va chakana depozitlarning mutanosib o'sishi depozit portfelini mijozlar toifalari bo'yicha diversifikatsiyalashga xizmat qiladi.

O'zbekiston bank tizimida depozitlar davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar o'rtasida nisbatan mutanosib taqsimlangan (7-jadval).

7-jadval. Depozitlarning banklar guruhlariga bo'yicha taqsimlanishi⁷

Banklar guruhi	2023-yil yakuni	Ulushi, %	2024-yil yakuni	Ulushi, %	2025-yil yakuni	Ulushi, %
Davlat ulushi mavjud banklar	124 305	51,4	154 511	50,1	212 671	51,0
Boshqa banklar	117 381	48,6	154 181	49,9	204 588	49,0
Jami	241 687	100,0	308 692	100,0	417 258	100,0

2023-yilda jami depozitlarning 51,4 foizi davlat ulushi mavjud banklarga, 48,6 foizi boshqa banklarga to'g'ri kelgan. 2024-yilda mazkur ulushlar mos ravishda 50,1 va 49,9 foizni tashkil etib, depozitlar banklar guruhlariga o'rtasida deyarli teng taqsimlangan. 2025-yil yakunida davlat ulushi mavjud banklarning depozitlari 212 671 mlrd so'mga, boshqa banklarning depozitlari esa 204 588 mlrd so'mga yetgan.

Davlat ulushi mavjud banklarda depozitlar hajmi 2023–2025-yillarda 71,1 foizga, boshqa banklarda esa 74,3 foizga oshgan. Boshqa banklardagi depozitlarning nisbatan yuqoriroq o'sish sur'ati bank xizmatlari bozorida raqobat muhiti va xususiy banklarning depozit resurslarini jalb etish imkoniyatlari kengayib borayotganini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlil asosida O'zbekiston bank tizimi depozit portfelida 2023–2025-yillar davomida quyidagi asosiy natijalar shakllangan:

1. Depozit bazasining yuqori sur'atlarda kengayishi. Jami depozitlar ikki yil davomida 72,6 foizga oshib, 417 258 mlrd so'mga yetgan.
2. Depozitlarning aktivlarni moliyalashtirishdagi o'rni kuchayishi. Depozitlarning aktivlardagi ulushi 37,1 foizdan 45,1 foizga ko'tarilgan.
3. Kredit portfelining depozitlar bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshilanishi. Depozitlarning kreditlarga nisbati 51,3 foizdan 69,1 foizga oshgan.
4. Milliy valyutadagi depozitlar ulushining ortishi. Milliy valyutadagi depozitlar jami portfelning 79,1 foizini tashkil etgan.
5. Uzoq muddatli depozitlarning ko'payishi. Bir yildan ortiq muddatli depozitlar hajmi 83,9 foizga oshib, 156 727 mlrd so'mga yetgan.
6. Talab qilib olinguncha depozitlarning tarkibiy ulushi kamayishi. Ularning jami portfeldagi ulushi 35,3 foizdan 30,2 foizga tushgan.
7. Chakana va korporativ depozitlarning birgalikda o'sishi. Jismoniy shaxslar depozitlari 31,0 foizga, yuridik shaxslar depozitlari esa 37,9 foizga oshgan.
8. Banklar guruhlariga o'rtasida depozitlarning mutanosib taqsimlanishi. Davlat ulushi mavjud va boshqa banklarning jami depozitlardagi ulushi 2025-yilda mos ravishda 51,0 va 49,0 foizni tashkil etgan.

Umuman, 2023–2025-yillarda O'zbekiston bank tizimi depozit portfelida miqdoriy o'sish bilan bir qatorda muhim tarkibiy o'zgarishlar ham yuz bergan. Milliy valyutadagi, muddatli va uzoq muddatli depozitlar hajmining oshishi banklarning ichki resurs bazasini mustahkamlashga xizmat qilgan. Depozitlarning kreditlar

7 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



va aktivlarga nisbatan tezroq o'sishi bank faoliyatini ichki moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston bank tizimi depozit portfelining 2023–2025-yillardagi tarkibiy holatini o'rganish natijalari tijorat banklarining depozit bazasi izchil kengayib, uning bank faoliyatini moliyalashtirishdagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatdi. Tahlil qilinayotgan davrda jami depozitlar hajmi 241,7 trln so'mdan 417,3 trln so'mga yetib, 72,6 foizga oshgan. Depozitlarning o'sish sur'ati bank aktivlari va kredit portfeli o'sishidan yuqori bo'lib, banklarning ichki moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan.

Depozitlarning jami aktivlardagi ulushi 2023-yildagi 37,1 foizdan 2025-yilda 45,1 foizga ko'tarilgan. Shu bilan birga, depozitlarning kredit portfeliga nisbati 51,3 foizdan 69,1 foizga oshgan, kredit-depozit koeffitsiyenti esa 195,0 foizdan 144,8 foizga pasaygan. Mazkur o'zgarishlar tijorat banklarining kredit operatsiyalarini depozit mablag'lari hisobidan moliyalashtirish darajasi yaxshilanib borayotganini hamda depozitlarning bank resurs bazasidagi o'rni mustahkamlanganini ifodalaydi.

Depozit portfelining valyuta bo'yicha tarkibida ham muhim ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Milliy valyutadagi depozitlarning ulushi 70,1 foizdan 79,1 foizga oshgan bo'lsa, xorijiy valyutadagi depozitlarning ulushi 29,9 foizdan 20,9 foizga kamaygan. Milliy valyutadagi depozitlarning jadal o'sishi banklarning milliy valyutadagi kredit va investitsiya operatsiyalarini ichki resurslar hisobidan moliyalashtirish imkoniyatini kengaytirib, depozit portfelining valyuta tarkibi yanada muvozanatli shakllanishiga xizmat qilgan.

Muddatlar bo'yicha olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, talab qilib olinguncha depozitlarning jami portfeldagi ulushi 35,3 foizdan 30,2 foizga kamaygan, bir yildan ortiq muddatli depozitlarning ulushi esa 35,3 foizdan 37,6 foizga ko'tarilgan. Uzoq muddatli depozitlar hajmining 83,9 foizga oshishi banklarning barqaror va uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash uchun qulay shart-sharoit shakllanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, 31 kundan 180 kungacha hamda 181 kundan 365 kungacha bo'lgan depozitlar hajmining o'sishi portfelning muddatlar bo'yicha diversifikatsiyasi yaxshilanayotganini tasdiqlaydi.

Mijozlar toifalari bo'yicha tahlil jismoniy va yuridik shaxslar depozitlarining birgalikda yuqori sur'atlarda o'sganini ko'rsatdi. 2025-yil yakunida jismoniy shaxslar depozitlari 160,4 trln so'mni, yuridik shaxslar depozitlari esa 256,9 trln so'mni tashkil etgan. Korporativ depozitlar portfelning asosiy qismini egallagan bo'lsa-da, aholi omonatlarining muntazam o'sishi chakana depozit bazasini yanada rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlardan dalolat beradi.

Depozitlarning davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar o'rtasida deyarli mutanosib taqsimlanishi bank xizmatlari bozorida raqobat muhitining rivojlanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, boshqa banklarda depozitlar hajmining nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi zamonaviy depozit mahsulotlari, raqamli xizmatlar va mijozlarga yo'naltirilgan bank faoliyatining ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tijorat banklari depozit portfelini optimallashtirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Jismoniy shaxslarning muddatli va jamg'arma depozitlarini kengaytirish orqali chakana depozitlar ulushini oshirish.
2. Bir yildan ortiq muddatli depozitlar bo'yicha jozibador va moslashuvchan shartlarni taklif etish.
3. Milliy valyutadagi depozit mahsulotlarini daromadlilik, qulaylik va muddat mezonlari asosida rivojlantirish.
4. Depozit portfelini mijozlar, muddatlar, valyutalar va hududlar bo'yicha diversifikatsiya qilish.
5. Talab qilib olinguncha depozitlarning barqaror qoldig'ini tahlil qilish va undan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish.
6. Mobil ilovalar orqali depozit ochish, avtomatik jamg'arish va masofadan boshqarish xizmatlarini kengaytirish.
7. Depozitlar qiymati, barqarorligi va likvidligini o'zaro bog'liq holda baholash tizimini joriy etish.
8. Depozit va kredit portfellari muddatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga yo'naltirilgan aktivlar va majburiyatlarni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish.

Umuman olganda, O'zbekiston bank tizimida depozit portfelining miqdoriy va tarkibiy rivojlanishi banklarning resurs bazasini mustahkamlash, kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun mustahkam asos yaratmoqda. Depozit portfelini optimallashtirishda faqat depozitlar hajmini oshirish emas, balki ularning muddati, qiymati, valyutasi, mijozlar tarkibi va barqarorlik darajasi o'rtasidagi maqbul nisbatni shakllantirish ustuvor vazifa bo'lishi lozim. Ushbu yo'nalishlarning amaliyotga joriy etilishi tijorat banklari depozit siyosati samaradorligini oshirish, ichki resurs bazasini diversifikatsiya qilish va bank xizmatlarining raqobatbardoshligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.U. Shermukhamedov. Changes in loan and deposit interest rates in commercial banks // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – T., 2021. – № 4. – B. 29–34.
2. B.U. Shermukhamedov. Tijorat banklari depozit siyosatini ishlab chiqishni takomillashtirish // Moliya va bank ishi. – T., 2022. – 14 b.
3. I. Jo'rayev. Rivojlangan davlatlarda tijorat banklarining depozit operatsiyalarini tashkil etish amaliyoti // Moliya va bank ishi. – T., 2023. – 10 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasining moliyaviy barqarorlik sharhi. 2024-yil. – T.: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.
7. P.S. Rose, S.C. Hudgins. Bank Management and Financial Services. 9th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2012. – 736 p.
8. A. Saunders, M.M. Cornett, O. Erhemjamts. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. 10th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2021. – 944 p.
9. T.W. Koch, S.S. MacDonald. Bank Management. 8th ed. – Boston: Cengage Learning, 2014. – 832 p.
10. D.W. Diamond, P.H. Dybvig. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity // Journal of Political Economy. – 1983. – Vol. 91, № 3. – P. 401–419.
11. A.N. Berger, C.H.S. Bouwman. Bank Liquidity Creation // The Review of Financial Studies. – 2009. – Vol. 22, № 9. – P. 3779–3837.
12. I. Drechsler, A. Savov, P. Schnabl. The Deposits Channel of Monetary Policy // The Quarterly Journal of Economics. – 2017. – Vol. 132, № 4. – P. 1819–1876.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>